

## **Boshlang'ich sinflarda savod o'rgatish metodikasi.**

*Samarqand viloyati Toyloq tumani 47-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

*Rasulova Maysara Maxmaraimova*

**Annotatsiya:** Savod o'rgatish darslarida ish turlarini almashtirib turish, vaqti-vaqti bilan dam olish daqiqalari o'tkazish zarur. Bu o'quvchilar toliqishining oldini oladi. Darslar tizimi deyilganda o'quv vaqtini mavzularga nazariy va amaliy jihatdan rejali taqsimlangan, darslarning mantiqiyligi va istiqboli bir-biri bog'langan, dars turlari va unda o'qituvchi bilan o'quvchilar foydalanadigan asosiy metodik vositalar xilma-xil bo'lgan izchillik nazarda tutiladi.

**Kalit so'zlar:** Savod o'rgatish metodikasi, interfaol metodlar, pedagogik texnologiyalar, axborot texnologiyalar, boshlang'ich sinf, fonetik-grafik, grammatik, orfografik va orfoepik tushunchalar

Savod o'rgatish davridagi darslarda ham interfaol usullar qo'llaniladigan darslardan foydalanish katta ahamiyatga ega. Ushbu maqolada husnixatga o'rgatishdan asosiy maqsad kichik yoshdagi o'quvchilarga yozishdek murakkab jarayonni o'rgatish ularning chiroyli yozuv malakalarini rivojlantirish yozuv daftarlari bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirish haqida fikr-mulohaza yuritilgan. Mustaqillik tufayli O'zbekiston Respublikamizda har bir kishining savodxon bo'lishiga alohida e'tibor berilmoqda. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov kelajak avlodning savodxon, yuksak ma'naviyat egasi bo'lib yetishishlari uchun g'amxo'rlik qilmoqdalar. Yurtboshimiz tomonidan yangi o'quv yilida 1-sinfga qadam qo'ygan jajji o'quvchilarga darslik va o'quv qurollarining sovg'a qilinishi buning isbotidir. Savod o'rgatish davrida o'qitishning maqsad va vazifalari o'quvchilarning boshlang'ich sinfda ona tili ta'limi bo'yicha egallaydigan bilim, ko'nikma va malakalari, ularga qo'yiladigan talablar davlat hujjati bo'lgan o'quv dasturida belgilab berilgan.

Shuningdek, savod o'rgatish dasturida ham savod o'rgatish jarayoni va uning vazifalari aniq ko'rsatilgan. Dasturga ko'ra 1-sinfga kelgan bolalarning savodini chiqarish elementar o'qish va yozishga o'rgatishdan boshlanadi. Ular boshlang'ich sinf davomida sidirg'a o'qish va savodli yozish kabi adabiy til me'yorlarini egallaydilar. Mamlakatimizda yosh avlodning ma'naviyatini yuksaltirish, milliy adabiyotimiz va san'atimizni yanada rivojlantirish, yoshlarni milliy qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash, ijodkorlarning mehnatini munosib rag'batlantirish, ayniqsa, navqiron avlodda kitobga mehr uyg'otish, ularning mutolaa madaniyatini yuksaltirish davlatimizning doimiy diqqat e'tiborida. Insonning dunyoqarashini kengaytirishda, mustaqil fikrlashda, hayot sinovlariga bardosh berishda, o'z kelajagini o'zi qurishida badiiy adabiyotning o'rni beqiyosdir. Respublika ta'lim markazi tomonidan jamoatchilik muhokamasiga tavsiya etilgan Milliy o'quv dasturda ona tilini o'qitish, zamon talablariga mos usullarda, dunyo mamlakatlari ta'lim andozalariga muvofiq tarzda tashkil etish masalasiga katta e'tibor qaratilgan. Boshlang'ich ta'limning samaradorligi o'quvchilarda o'ziga xos tarzda tarkib topgan ta'limiy faoliyatning shakllanish darajasiga bog'liq. Bunday faoliyat nazariy bilimlarni o'zlashtirish jarayonida, o'qituvchi rahbarligida shakllanadi va muntazam ravishda shakllanib boradi. Boshlang'ich ta'limning samaradorligini ta'minlashda o'qituvchining shaxsiy sifatleri va pedagogik kasb mahorati ham muhim ahamiyat kasb etadi. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi barcha pedagogik-psixologik vositalarni qo'llagan holda kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda yaxlit tarzda o'quv faoliyatini shakllantira olishi ekrakligi bugungi kunda barchaga ayon. Bu o'quv faoliyati fonetik-grafik, grammatik, orfografik va orfoepik tushunchalar ustida ishlashda shakllansa, o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqidagi nuqsonlar yo'qola boradi. O'quvchilar ilk bor maktabga qabul qilinganlaridan boshlab ularning og'zaki va yozma nutqiga e'tibor kuchaytiriladi. Dastlabki sinflardan boshlab o'quvchilarning husnixat malakalari ustida ishlash, ularga yozuv qoidalarini o'rgatib borish, alifbodagi har bir harfni yozuvda to'g'ri va aniq ifodala berishga o'rgatish boshlang'ich sinf o'qituvchisidan juda katta

mas'uliyatni talab qiladi. Ma'lumki, insoniyat tomonidan yaratilgan eng katta kashfiyotlardan biri bu – yozuvdir. Yozuv inson tomonidan hayotiy ehtiyojlar va zaruriyatlar tufayli o'ylab topildi va insoniyatning o'ziga, jamiyatning mislsiz taraqqiyotiga xizmat qilib kelmoqda. Yozuv fikrni tovush yetmaydigan joy va kelajakka yetkazish ehtiyojidan kelib chiqqan. Shunday qilib, yozuv insoniyat tarixini kelajak avlodga yetkazib berishdek juda katta vazifani bajarib kelayotgan buyuk ne'matdir. Yozuvga o'rgatish, birinchi navbatda, grafik malaka hosil qilishdir. Har bir malaka ham ta'lim berish, ko'nikmani shakllantirish va shu asosda qator mashqlarni bajarish natijasida hosil qilinadi. Grafik malaka, birinchidan, qo'l-harakat malakasidir, bu harakat birinchi qarashda muskul kuchiga asoslanadi. Ikkinchidan, yozuv jarayonida nutqning o'zlashtirilgan birligi bo'lgan tovush grafik belgilarga, ya'ni harfga tarjima qilinadi. Bu yozuvga ongli faoliyat tusini beradi. Yozuvning ongliligi, birinchidan, tovush va harfning to'g'ri nisbatini, ikkinchidan, bir qancha grafik va orfografik qoidalarga rioya qilishni, uchinchidan, o'z fikrini, taassurotini ifodalashda yozuv malakalaridan foydalanishni talab qiladi. Yozishdan birdan-bir maqsad fikrni ifodalashda yozuvlaridan foydalanish hisoblanadi. Bu maqsadni bolalar tez anglab yetsalar, ularda yozma nutq malakasi shunchalik muvoffaqiyatli va to'g'ri shakllanadi. Savod o'rgatish jarayonida bolalar juda sekin yozadilar, uz fikrini, xatto bir yozuv bilan yozma ifodalash uchun ham yarim oylar o'tadi. Yozuv malakasi o'qish malakasi bilan uzviy bog'liqdir. Bola yomon o'qisa, yozuvni egallashi qiyin bo'ladi, chunki bo'g'inlab o'qish malakasidan so'ng, bo'g'inlab yozish malakasi shakllanadi. Yozish va o'qish uchun bolaning umumiy nutqiy rivojlanishi katta ahamiyatga ega. Keyinroq bolalarda uz fikrini yozma ifodalash malakasi bir oz barqarorlashganda, bu malaka nutqga, fikrni ifodalash jarayoniga ham ijobiy ta'sir qiladi. Grafik malakani shakllantirishda quyidagi bosqichlar:

1. Turli shakllar andozasi ustidan chizish. Erkin rasmlar chizish. Yozuv qurollarini to'g'ri tutish, turli qiya elementlar chizish, uzunlikni, oraliq masofani chamalash va hokazo.

2. Harf elementlarini yozish, baravar masofada qisqa va uzun elementlar, osti va usti ilmoqli elementlar chizish.

3. Bosh va kichik harflarni alohida yozish, harf birikmalarini, bo'g'inni yozish, harflarni to'g'ri tushib yozish malakasini hosil qilish uchun so'z yozish.

Grafik malakani hosil qilishdan asosiy maqsad, harflarni bosmasdan bir tekisda, elementlarga ajratmay bog'lab tez, bir maromda yozish, so'zlarni qatorga to'g'ri joylashtirishdir. Shuni ta'kidlash kerakki, savod o'rgatish davrida bola harflarni yozishdan oldin uni qanday shakllantirishni ko'z oldiga keltirib, fikrlab oladi, ba'zan harf shaklini havoda «chizadi», harf namunasini ko'chiradi, tarkibini tahlil qiladi, uni qanday yozishni o'zicha sekin gapiradi: o'qituvchi o'quvchi yoniga o'tirib, ruchkani to'g'ri ushlatadi va uning qo'li bilan harfni yozishni ko'rsatadi yoki o'zi yozib tushuntiradi. Bundan tashqari, bola yozuvning texnik tomoniga katta jismoniy kuch sarflaydi. Savod o'rgatish oxirida bola bir darsda 20 tacha so'zni yozishi mumkin. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qaroriga binoan 1993-yil 2-sentabrda «Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida»gi qonun qabul qilindi. 1995-yil 6-mayda qonunga o'zgartirishlar kiritildi. Bu alifbodagi harflarning asosiy xususiyati bosmasdan, qo'lni uzmasdan bog'lab yozishga mo'ljallangan. Shuning uchun yozuvga o'rgatish metodikasida harflarni qo'shishga alohida ahamiyat beriladi. O'quvchilar barcha harflarni bir-biriga qo'shish yo'lini bilishlari lozim. Maktabda asosiy yozuv o'uroli sharikli ruchka, xattaxtada yozish uchun bo'rdan foydalaniladi. Savod o'rgatish davrida bolalarni yozuvga o'rgatish uchun turli vaqtlarda turli xil chiziqli daftarlardan foydalanilgan: dastlab chiziqsiz silliq qog'oz ishlatilgan bo'lsa, keyin quyoq yopiq chiziqlar bilan kesilgan uch chiziqli daftardan foydalanilgan. Bunday daftarda yozuvga o'rgatilgan bola boshlang'ich sinflarni bitirgunga qadar besh xil daftarga yozishni o'rganishi talab etilar edi. Hozirgi vaqtda yozuvga o'rgatish uchun ikki chiziqli daftar tavsiya etiladi. Xat taxta ham shunga mos bo'lishi talab qilinadi; 2-sinfdan, ba'zan birinchi sinfdan o'quv yilining ikkinchi yarmidan boshlab bir chiziqli daftarga

yoʻzishga oʻtiladi. Daftari tutishda bolalarni xoshiya qoldirishga, daftari chiziqlariga rioya qilishga, harflarni bir xil hajmda yoʻzishga, sarlavxani aniq va toʻgʻri ajratishga, xat boshidan yoʻzishda joy qoldirishni unutmaslikka oʻrgatib borish ularda saranjom-sarishtalikni tarbiyalaydi. Yoʻzuv darsida oʻquvchilar «Yoʻzuv daftari» bilan ishlaydilar. Sinfda oʻrganilgan harfni uyda mashq qilish uchun alohida daftari boʻlgani maʼqul. Oʻqituvchi yoʻzish vaqtida 65 gradus qiyalikda yoʻzishni, buning uchun daftari parta ustiga 25 gradus qiyalikda qoʻyilishini taʼkidlab turadi. Orfografiya grekcha «toʻgʻri» va «yoʻzaman» soʻzlaridan olingan boʻlib, adabiy tilning yoʻzma shakli bilan bogʻliq. Orfografiya toʻgʻri yoʻzish haqidagi qoidalar koʻnikmasidir. Orfografiyani bilmay turib, fikrni adabiy til normalari asosida yoʻzma ifodalab boʻlmaydi. Oʻquvchilarning orfografik savodxonligi haqida gʻamxoʻrlik qilish tilning aniqligi, fikrni toʻgʻri ifodalash, kishilar bilan oʻzaro xatosiz muomala qilish uchun gʻamxoʻrlik demakdir. Savod oʻrgatish davridayoq bolalar grammatika va imlodan ayrim materiallarni amaliy oʻzlashtira boradilar, yaʼni ularga mavzu tushintirilmaydi. Bolalar ogʻzaki va yoʻzma nutqni oʻzlashtirish va yoʻzma mashqlarni bajarish bilan oʻquv yilining ikkinchi yarmida yoki keyingi sinflarda oʻrganiladigan mavzularni oʻzlashtirishga tayyorlanadilar. Savod oʻrgatishning birinchi oylaridayoq bolalar Omon, Tolib, Lola, Naima kabi juda koʻp ismlarni oʻqiydilar va kishilarning ismlari oʻqiydilar va kishilarning ismlari bosh harf bilan yoʻzilishini amaliy oʻzlashtira boradilar. Bu bilan ular keyinroq oʻrganiladigan kishilarning ismi bosh harflar bilan yoʻzilishiga doir imlo qoidasini oʻzlashtirishga tayyorlanadilar. Til-dil, olti-olti kabi soʻzlarni oʻqishni mashq qilish jarangli va jarangsiz undoshlarni oʻzlashtirishga, son-sana, gul-gulchi-guldon-gulzor, bogʻ-bogʻbon, kabi soʻzlarni oʻqishni mashq qilish esa bolalarni "Oʻzakdosh soʻzlar" mavzusini oʻzlashtirishga tayyorlaydi. Propedevtik mashqlar tizimi boshangʻich sinflar grammatika va imlo dasturining bosqichli izchillik tamoyili asosida tuzilishiga mos keladi. Amaliy ishlar natijasida bolalarda maʼlum nutq tajribasi, til qoidalarini, uning tarkibi va yasalişini, boshqa soʻzlar bilan bogʻlanganda oʻzgarishini kuzatish tajribasi toʻplana boradi. Mana

shu tajribalar asosida o'quvchilar nazariy umumlashmalarni o'zlashtiradilar, bular asosida esa gramatik tushincha va arfografik qoidalar shakllanadi. Gap ustida ishlash. Fikr almashish, aloqa - aralashuv gap vositasida amalga oshiriladi, shuning uchun ham gapni o'qishga, gap tuzishga, gap mazmunini aniqlashga, gapni to'g'ri yozishga oid amaliy bilimlar savod o'rgatish davridan boshlab shakllantiriladi. Savod o'rgatishda bolalarda grafik malakani shakllantirish bilan bir vaqtda imloga oid malakani shakllantirishga ham zamin yaratiladi. Savod o'rgatish davrida o'quvchilar:

a) talaffuzi va yozilishida farq qilmaydigan so'zlarda tovush bilan harfning mosligini;

b) so'zlarni alohida yozishni, ya'ni yozuv vositasida so'zni ma'no birligi sifatida ajratishni;

v) so'zning satrga sig'may qolgan qismini keyingi qatorga bo'g'inlab ko'chirib yozishni, bunda bo'g'in hosil qilgan bir unli harfni qatorga ko'chirib yozib bo'lmasligini;

g) gap boshida, shuningdek, kishilar ismida, hayvonlarga qo'yilgan nomlarda bosh harfning ishlatilishini amaliy tarzda o'rganadilar. Savod o'rgatish davridayoq ko'chirib yozish, diktant va ijodiy yozuvlardan foydalaniladi. O'z-o'zini tekshirishga o'rganadilar. Yozuv darslarida ham o'quvchilar nutqini o'stirish, fikrlashga o'rgatish asosiy vazifalardan hisoblanadi. Shu bilan birga ushbu davr o'quvchilarni to'g'ri va chiroyli savodli yozishlari uchun asosiy poydevor bo'lib xizmat qiladi.

**Xulosa:** Keyingi paytlarda ta'lim-tarbiya nazariyasi va amaliyotida jiddiy o'zgarishlar ro'y berdi. Natijada avvallari an'ana bo'lgan ta'lim jarayonida qo'llanadigan metodlar o'rniga yangi zamonaviy pedagogik texnologiyalarga asoslangan interfaol metodlar kirib kela boshladi. Mavzularning o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi va ularning mustaqil fikr yuritishlariga undash bevosita o'qituvchi faoliyatiga bog'liqdir. Zero, yangi ta'lim standartlarini o'zlashtirish kafolati yangicha zamonaviy metodlarni qo'llashni talab etadi. Ta'lim tizimidagi islohot munosabati bilan boshlang'ich ta'lim oldiga qo'yilgan talablar o'qish darslarida

pedagogik texnologiyalarning rivojlantiruvchi, differentsiatsiya, shaxsni muayyan maqsadga yo`naltirish, izlanish, muammoli o`qitish, mustaqil ish usullaridan foydalanishni taqozo etmoqda. Shuni hisobga olgan holda boshlang`ich sinf o`qish darslarini samarali tashkil etishga yordam beradigan, o`quvchining faolligini oshiradigan mustaqil ish, yarim izlanishli muammoli o`qitish, musobaqa–bellashuv metodlaridan, turli interfaol metodlardan foydalaniladi. Darslarni aqliy hujum, mustaqil tahlil, ta`limiy o`yin, turli sahna ko`rinishli andazasiz usullardan foydalanib uyushtirishga alohida e`tibor qaratiladi. Savod o`rgatish davrida ham o`quvchilarning mavzuni chuqur o`zlashtirishlarini, uni tahlil qila olishlarini ta`minlash kerakligini hisobga olgan holda metod tanlashga e`tibor qaratiladi. Bunda interfaol metodlarni qo`llash maqsadga muvofiqdir. Chunki zamonaviy ta`limni tashkil etishga qo`yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni yetkazib berish, ularda ma`lum faoliyat yuzasidan ko`nikma va malakalarini hosil qilish, shuningdek, o`quvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko`nikma hamda malakalar darajasini baholash o`quvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta`lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayeva Q., Nazarov K., Yo`ldosheva SH. Savod o`rgatish metodikasi.- Toshkent, "O`qituvchi", 2015[1]
2. Abdullayeva Q. Yangi pedagogik texnologiyalar // Boshlang`ich ta`lim, 2009[2]
3. Azizxo`jayeva N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat.- Toshkent: O`zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg`armasi nashriyoti, 2016[3]
4. Matnazarova K. O`qitishning faol metodlari // Boshlang`ich ta`lim, 2009, [4]
5. Matchonov S., Gulomova X. va boshqalar. Boshlang`ch sinf o`qish darslarini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish.- Toshkent: , "Yangiyul Poligraph servise", 2008.[5]